

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.I.70.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHEV NURBEK JANON O'G'LI

MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
AGLOMERATSIYANI OPTIMAL JOYLASHTIRISH MEXANIZMI
(Qashqadaryo viloyati misolida)

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Toshev Nurbek Janon o'g'li

Mintaqada turizmni rivojlantirishda aglomeratsiyani optimal joylashtirish
mexanizmi (Qashqadaryo viloyati misolida) 5

Тошев Нурбек Жанон угли

Механизм оптимального размещения агломерации в развитии туризма
в регионе (На примере Кашкадарьинской области)..... 25

Toshev Nurbek Janon ugli

The mechanism for optimal placement of agglomeration in the development of
regional tourism (On the example of Kashkadarya region)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.07.2024.I.70.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHEV NURBEK JANON O'G'LI

MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
AGLOMERATSIYANI OPTIMAL JOYLASHTIRISH MEXANIZMI
(Qashqadaryo viloyati misolida)

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3671 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Muxitdinov Xudayar Suyunovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Xatamov Ochildi Qurbonovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.07.2024.1.70.07-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" "06" soat 12³⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (278-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "21" "06" kuni tarqatildi
(2025-yil "21" "06" da 2 -raqamli reyestr bayonnomasi).



D.X. Nabiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

G'.A. Nabiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d., PhD

A.O. Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda turizm industriyasining global miqyosda rivojlanishi va mintaqalar o'rtasidagi raqobatbardoshlik darajasining oshishi turizm aglomeratsiyalarining optimal xususiyatlari va ahamiyatini tobora kuchaytirmoqda. Turizm aglomeratsiyalari – bir-biriga yaqin joylashgan va o'zaro bog'langan turistik maskanlar hamda infratuzilmalar yig'indisidir. “2030-yilga borib jahonda turistik sayohatlarning umumiy soni 37,4 milliardga yetishi kutilmoqda, shundan 17,4 milliard xalqaro va mahalliy bir kechaga kelganlar (1,8 milliard xalqaro va 15,6 milliard mahalliy) bo'ladi”¹. Bu shundan dalolat beradiki, yirik shaharlar va turistik maskanlar o'rtasidagi kunlik yoki qisqa muddatli harakatlanishlarni tartibga solish, global rekreatsion sog'lomlashtirish va spa turizmiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini yangi talab darajasiga ko'tarishni ta'minlovchi infratuzilmalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarining moslashuvchanlik, aniqlik hamda xizmatlarni joylashtirishning optimallik xususiyatlarini oshirish bilan bog'liq dolzarb masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Jahon miqyosida mintaqaviy turizm aglomeratsiyalari aloqalarini rivojlantirish bo'yicha sayohatchilarning markaziy turistik joylar o'rtasida erkin harakatlanishini ta'minlash, kunlik va qisqa muddatli safarlarni tashkil etish, bir mintaqadagi yaqin atrofda joylashgan turistik maskanlarni integratsiya qilish hamda takroriy tashriflarni rag'batlantirish, sayyohlar uchun qulay transport va raqamli platformalar asosida faoliyat yurituvchi infratuzilmalarni yaratish va rivojlantirish yo'nalishlariga qaratilgan dolzarb masalalar ustida izchil ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, natijada mintaqalar global turizm bozorida raqobatbardosh infratuzilmani yaratibgina qolmay, davlat, xususiy sektor va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro uyg'un aloqalarni mustahkamlash kabi zamonaviy masalalar yechimiga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekistonda turizm aglomeratsiyasining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim strategik omillardan biri sifatida hamda bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro bog'langan, milliy merosni saqlash, iqtisodiyotni mustahkamlash va xalqaro e'tiborni jalb qilish kabi ijtimoiy masalalarni ham hal qilishga hissa qo'shuvchi soha sifatida shakllanmoqda. Jumladan, “2030-yilda xorijiy turistlar sonini 15 millionga ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladiganlar sonini 3 millionga va turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga”² yetkazishga erishish turistik infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadlariga xizmat qilishi fikrimizning yaqqol dalili. Ta'kidlangan ustuvor maqsadlarga erishishda turistik faoliyatga xizmat ko'rsatuvchi mintaqaviy xususiyatlarni aks ettiruvchi zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish, ular o'rtasidagi mavjud aloqalarni zamonaviy talablar asosida diversifikatsiyalash

¹ <https://www.unwto.org/investment/un-tourism-investment-guidelines-SA1>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

imkoniyatlarini amaliyotga tatbiq etish usullari hamda texnologiyalarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2023" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi "Qashqadaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-376-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-20-son qarorlari hamda turizm faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm aglomeratsiyasining milliy iqtisodiyotdagi roli va uni rivojlantirishning fundamental masalalarini o'rganish bo'yicha xorijda Richard Butler³, Dimitri Ioannides⁴, Manuel Kastels⁵, N. Leyper⁶, M.A. Gallo⁷, K.A. Romano⁸, Rossiyalik olimlar Vladimir Vedenin⁹, Lev Mins¹⁰, I.I. Zorin¹¹ hamda respublikamiz olimlaridan A.O. Ochilov¹², N.S. Ibragimov¹³., B.N. Navruzzoda¹⁴, G.R. Xidirova¹⁵, F.S. Qutlimurodov¹⁶ va boshqalar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari ushbu yo'nalishda qilingan ilmiy ishlar ichida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega, ammo aglomeratsiyaning mintaq

³ R. Butler "Tourism Area Life Cycle: Contemporary Tourism Reviews" 2006. – P. 45-46.

⁴ D. Ioannides "Tourism in the Age of Globalisation" 2000. – P. 90-112.

⁵ M. Castells. "The Rise of the Network Society". 1996. – P. 140-160.

⁶ Leiper N. "Tourism system: an interdisciplinary perspective. Palmerston North, New Zealand: Department of Management Systems, Business Studies Faculty", Massey University, 1990. – 289 p.

⁷ Gallo M.A. "The role of family business and its distinctive characteristic behavior in industrial activity" // Family Business Review. 1995. – №.2. – Pp. 83-97.

⁸ Romano C.A., Tanewski G.A., Smyrnios K.X. "Capital structure decision making: A model for family business" // Journal of business venturing. 2001. T. 16.

⁹ В. Веденин. «География туризма и туристические агломерации», 2013. – С. 110-130,

¹⁰ Л. Минц. «Региональные туристические системы и агломерации», 2015. – С. 75-96.

¹¹ И. Зорин «Туристические кластеры и агломерации в странах СНГ», 2018. – С. 88-109.

¹² A.O. Ochilov. Aglomeratsiyani rivojlantirishni klasterlash tizimi // Innovatsion iqtisodiyot: Ilmiy-amaliy elektron jurnal. 2023. 4-son. – B. 33-37.

¹³ Ibragimov N.S. "Mamlakat doirasida turizmning uch makonli tizimli tahlili". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal. – № 6. noyabr-dekabr, 2017. – B. 1-10.

¹⁴ B.N. Navruz-Zoda "Turistik hudud raqobatbardoshligi". Monografiya. 2017. – B. 27-34.

¹⁵ Xidirova G.R. "Mintaqaviy turizm" o'quv qo'llanma. // Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2020. – 176 b.

¹⁶ F. Qutlimurotov. Turizm iqtisodi. Darslik. – TDIU, 2011. – 127 b.

turizmi sohasida tutgan o‘rni va rivojlantirish mexanizmi bilan bog‘liq masalalar tadqiqotlar doirasidan chetda qolgan. Xususan, aglomeratsiyani rivojlantirishda hududiy va mahalliy aloqalarni rivojlantirish olish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Ta’kidlash joizki, keltirilgan fikrlar tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida va “Turizm va marketing” kafedrasining “Turizm sohasi raqobatbardoshligini oshirish va turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikda zamonaviy texnologiyalar konsepsiyalaridan foydalanish yo‘llari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mintaqada turizmni rivojlantirishda aglomeratsiyani optimal joylashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha mintaqaviy turizm muammolar yechimlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

“turistik aglomeratsiya” va “mayatnik aglomeratsiya” tushunchalari mohiyatini ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va mavjud nazariy yondashuvlarni umumlashtirish;

turistik aglomeratsiyasining mayatnik aloqalarining xorij tajribasini o‘rganish va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

mintaqaviy xususiyatlar asosida turistik aglomeratsiyaning mayatnik aloqalarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish;

mamlakatda keng ko‘lamli strategiyalarni amalga oshirish doirasida mintaqaviy turistik aglomeratsiyalarni tashkil qilishni diversifikatsiyalashni tahlil etish;

Qashqadaryo viloyatida turistik aglomeratsiyasini optimal joylashtirish omillariga aniqlik kiritish;

Qashqadaryo viloyatining ekoturistik aglomeratsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlarini ilmiy asoslash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqaga aglomeratsiyasini optimal joylashtirish bo‘yicha smart-turizm texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ochib berish;

turizm aglomeratsiyani optimal joylashtirishni zamonaviy modellar asosida takomillashtirish;

mintaqada turistik aglomeratsiyaning rivojlanishini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish.

Tadqiqotning obyekti Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti xizmat ko‘rsatish sektorlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti mintaqaviy turistik aglomeratsiyani rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida, tahlilning mantiqiy taqqoslash, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, ekspert baholash, ko‘p variantli prognoz kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qarshi–Shahrisabz–Kitob–Qarshi yo‘nalishida aglomeratsiya markazlari orqali turistlarni kutib olib, markazgacha kuzatish, hamda har bir markaz atrof hududidan 90 kmgacha bo‘lgan masofada joylashgan tarixiy, tabiiy va madaniy obyektlarga bir kunlik (express tour) yoki bir necha kunlik (cluster tour) sayohatlarni qamrab oladigan “mayatniksimon turizm aloqalari”ni shakllantirish taklifi dalillangan;

turizm aglomeratsiyalarini joylashtirishda tabiiy, infratuzilmaviy va iqtisodiy cheklovlarni turistlarning asosiy yo‘nalishlarda harakatlanishiga ta‘sirini aniqlashda chegaralangan ekstremumlarni taqdim etuvchi “Lagrange multiplikator”lari usuli afzalliklari asoslangan;

mintaqa turizmini raqamli boshqarish uchun aglomeratsiyalar samaradorligi (ish sifati, mahsuldorlik, foyda, tejamkorlik, vaqt va resurslardan foydalanish samarasi)ni oshirish va turistik oqimni real vaqtda tahlil qilish maqsadida “Smart-turizm aglomeratsiya platformasi”ni yaratish taklifi dalillangan;

turizm aglomeratsiya markazlarining joylashuvi va mintaqa turizmining rivojlanish o‘rtasidagi bog‘lanish darajasining yuqoriligi isbotlangan holda, unga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha rivojlanishning 2025–2030-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qarshi–Shahrisabz–Kitob–Qarshi yo‘nalishida aglomeratsiya markazlari orqali turistlarni kutib olib, markazgacha kuzatish, hamda har bir markaz atrof hududidan 90 kmgacha bo‘lgan masofada joylashgan tarixiy, tabiiy va madaniy obyektlarga bir kunlik (express tour) yoki bir necha kunlik (cluster tour) sayohatlarni qamrab oladigan “mayatniksimon turizm aloqalari”ni joylashtirishning funksional va strategik asoslari ishlab chiqilgan;

turizm aglomeratsiyalarini joylashtirishda tabiiy, infratuzilmaviy va iqtisodiy cheklovlarni turistlarning asosiy yo‘nalishlarda harakatlanishiga ta‘sirini aniqlashda chegaralangan ekstremumlarni taqdim etuvchi “Lagrange multiplikator”lari usuli asosida turistlar oqimi va xizmatlar sinergiyalari asoslab berilgan;

“Smart-turizm aglomeratsiyasi” platformasi modeli tuzulmasi taklifi asosida aglomeratsiyalar samaradorligi (ish sifati, mahsuldorlik, foyda, tejamkorlik, vaqt va resurslardan foydalanish samarasi) 30–35% ga oshishi hamda turistik oqimni real vaqtda tahlil qilish imkoniyatlari yaratilgan va raqamli xaritalash asosida taklif etilgan joylashtirishning innovatsion mexanizmi natijasida turistlar tashrif buyurish imkoniyati 108% ga oshgan;

Turizm aglomeratsiyasi faoliyatining turli sohalarida raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini modellashtirish va axborot bozori xizmatlarini rivojlanishining ekonometrik modellar yordamida baholash va ko‘p variantli prognozlash usullari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni

muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi Qashqadaryo viloyati Turizm boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan olinganligi va tegishli xulosa va takliflar mazkur tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, rivojlantirish va boshqarish bo'yicha qabul qilingan qonun va qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan tegishli vazifalarning ijrosini ta'minlashda hamda prognoz ko'rsatkichlarini asoslashda muayyan darajada xizmat qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish yo'nalishlaridagi "Turizmni rejalashtirish va rivojlantirish", "Turizm geografiyasi", "Turizm resurslari", "Turizm iqtisodiyoti", "Turizmda transport xizmatlari" "Xalqaro turizm" fanlarini o'qitishda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada turizmni rivojlantirishda aglomeratsiyani optimal joylashtirish mexanizmi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qarshi–Shahrisabz–Kitob–Qarshi yo'nalishida aglomeratsiya markazlari orqali turistlarni kutib olib, markazgacha kuzatish, hamda har bir markaz atrof hududidan 90 kmgacha bo'lgan masofada joylashgan tarixiy, tabiiy va madaniy obyektlarga bir kunlik (express tour) yoki bir necha kunlik (cluster tour) sayohatlarni qamrab oladigan "mayatniksimon turizm aloqalari"ni shakllantirish bo'yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 8-avgustdagi 01-16-331-sonli "Hududda joylashgan umumiy ovqatlanish, mehmonxona, madaniy meros va turizm sohasida kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 04-fevraldagi 03-10-17-1058-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, har bir hudud uchun turistik resurs zichligi, transport-logistika qulayligi, aholi zichligi, xizmatlar ko'rsatish salohiyati va investitsion jozibadorlik indikatorlari asosida aglomeratsiya markazlari va ularga xizmat ko'rsatuvchi zonalar optimal ravishda aniqlab berilgan, turizm oqimini 20–30% oshirish imkoniyati shakllantirilgan.

Turizm aglomeratsiyalarini joylashtirishda tabiiy, infratuzilmaviy va iqtisodiy cheklovlarni turistlarning asosiy yo'nalishlarda harakatlanishiga ta'sirini aniqlashda chegaralangan ekstremumlarni taqdim etuvchi "Lagrange multiplikator"lari usuli afzalliklari asoslanganligi bo'yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 8-avgustdagi 01-16-331-sonli "Hududda joylashgan umumiy ovqatlanish, mehmonxona, madaniy meros va turizm sohasida kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 04-fevraldagi 03-10-17-1058-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Raqamli xaritalash va real vaqtda monitoring texnologiyalari yordamida turistik obyektlar o‘rtasidagi optimal masofalar va aglomeratsion markazlar aniqlanib, turistik marshrutlar samaradorligi 1,5–2 baravarga oshirildi, logistika xarajatlari esa 15–20% ga kamaytirildi.

Mintaqa turizmini raqamli boshqarish uchun aglomeratsiyalar samaradorligi (ish sifati, mahsuldorlik, foyda, tejamkorlik, vaqt va resurslardan foydalanish samarasi)ni oshirish va turistik oqimni real vaqtda tahlil qilish maqsadida “Smart-turizm aglomeratsiya platformasi”ni yaratish bo‘yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 8-avgustdagi 01-16-331-sonli “Hududda joylashgan umumiy ovqatlanish, mehmonxona, madaniy meros va turizm sohasida kadrlar tayyorlash va ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 04-fevraldagi 03-10-17-1058-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Klasterlararo mayatnik harakatlari orqali transport va xizmat ko‘rsatish energiyasi yaxshilanib, ichki regional turistlar oqimi 25–35% ga ko‘paydi, xizmatlar tarmog‘ida o‘sish va bandlikni oshirish imkoniyati yaratildi;

Qashqadaryo viloyatida turizm aglomeratsiyasini rivojlantirish va unga ta‘sir etuvchi omillarning 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan istiqbolli ko‘p variantli prognozlarini bo‘yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 8-avgustdagi 01-16-331-sonli “Hududda joylashgan umumiy ovqatlanish, mehmonxona, madaniy meros va turizm sohasida kadrlar tayyorlash va ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 04-fevraldagi 03-10-17-1058-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish va optimal qarorlar qabul qilish, turizm sohasidagi talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda istiqboldagi imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy yetilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqa turistik aglomeratsiyalar rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Mintaqa turistik aglomeratsiyalar rivojlanishining nazariy jihatlari, Mintaqa turistik aglomeratsiyasining mayatnik aloqalarini rivojlantirish usullari va Mintaqa turistik aglomeratsiyasining mayatnik aloqalarining xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Mintaqa turistik aglomeratsiyalari rivojlanishining nazariy jihatlari turizm geografiyasi, iqtisodiy rivojlanish va shaharsozlik nazariyalari bilan chambarchas bog‘liq. Bu nazariy jihatlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Markaz-periferiya nazariyasi – bu nazariyaga ko‘ra, markaziy hududlarda turizm tarmoqlari rivojlanib, ularning atrofidagi periferiya hududlar ham ushbu rivojlanishdan foyda oladi. Turistik aglomeratsiya – bu turizm sohasidagi jamoalar, obyektlar va xizmatlar yig‘indisi bo‘lib, ular ma‘lum bir geografik hududda birlashib, o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu aglomeratsiya turli xil turistik manzillar, mehmonxonalar, dam olish maskanlari, transport infratuzilmasi, restoranlar va ko‘ngilochar obyektlar majmuasidan tashkil topadi.

Turistik aglomeratsiyalar ko‘pincha bir necha shahar va qishloqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, va ekologik o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Aglomeratsiyani rivojlantirishda hududlar orasida iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, turistik imkoniyatlarni kompleks rejalashtirish muhim. Turistik aglomeratsiyalarni loyihalashda va rivojlantirishda geografik axborot tizimlari (GAT) vositalari ishlatiladi.

“Turistik aglomeratsiya¹⁷ – bu raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi uchun jamoalar, obyektlar va xizmatlarning yagona geografik hududda integratsiyalashgan yig‘indisidir. Ushbu tizim zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritib, sayyohlarga yanada qulay va individuallashtirilgan xizmatlar ko‘rsatishni, resurslardan samarali foydalanishni va hududning iqtisodiy barqarorligini oshirishni ta‘minlaydi”. Bunda turistik aglomeratsiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalar orqali global bozorga integratsiya qilinadi va mahalliy infratuzilmaning raqamli transformatsiyasiga hissa qo‘shadi. Bu turizm aglomeratsiyalarining mayatnik aloqalari rivojlanishining muhim qismi hisoblanib, shaharlararo tezkor poyezdlar, avtomobil yo‘llari va hatto qisqa masofali aviaqatnovlarni tashkil qilish, mayatnik aloqalarni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.


“Mayatnik aglomeratsiya¹⁸ – turizm xizmatlari va infratuzilmasi rivojlanishi

¹⁷ Xorij va mahalliy olimlarning nazariyalari asosida muallif tomonidan ushbu ta‘rif ishlab chiqilgan.

¹⁸ Xorij va mahalliy olimlarning nazariyalari asosida muallif tomonidan ushbu ta‘rif ishlab chiqilgan.

natijasida sayyohlarning shaharlar yoki turistik markazlar bilan ular atrofidagi hududlar o'rtasida qisqa muddatli yoki kunlik tashriflar orqali iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni shakllantiruvchi jarayondir". Bu jarayon hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, turizm klasterlarini barqaror rivojlantirish va xizmat ko'rsatish sohasida yangi imkoniyatlar yaratishda hal qiluvchi rol o'ynab, markaz va atrofdagi hududlar resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Turistlar oqimini markaziy joylardan periferik joylarga yo'naltirish orqali turistik manzillarning haddan tashqari yuklanishining oldini olish mumkin. Bu esa, ekologik barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy taqsimot kabi maqsadlarni amalga oshiradi. Mayatnik aloqalari nafaqat turizmga, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Kichik shaharlar va qishloqlar katta markazlar bilan bog'lanib, ularning iqtisodiy faoliyatini kuchaytirishi mumkin. Turizm oqimi bir yerdan boshqasiga o'tishi orqali mintaqaning umumiy farovonligi oshadi. Mayatnik aloqalari konsepsiyasi mintaqaviy turizm aglomeratsiyasining samarali faoliyat yuritishi va sayohatchilar oqimini optimal boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. (1-rasm)



1-rasm. Mayatnik aloqalari konsepsiyasi¹⁹


1-rasmda Mintaqaviy turizm aglomeratsiyasidagi mayatnik aloqalari konsepsiyasi tasvirlangan. Ushbu konsepsiyadan foydalanib Qarshi–Shahrisabz–Kitob–Qarshi yo‘nalishida aglomeratsiya markazlari orqali turistlarni kutib olib, markazgacha kuzatish, hamda har bir markaz atrof hududidan 90 kmgacha bo‘lgan masofada joylashgan tarixiy, tabiiy va madaniy obyektlarga bir kunlik (ekspres tour) yoki bir necha kunlik (cluster tour) sayohatlarni afzalliklari asoslanadi.

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tezkor va qulay transport vositalarini joriy etish orqali, tezkor poyezdlar yoki reyslar orqali turistlarning sayohat vaqtini qisqartirish va qulaylikni oshirish mumkin.

Dissertatsiyada bu aloqalarni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan usullar keltirilgan. Mayatnik aloqalarni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biri samarali va qulay transport vositalari hisoblanadi. Turistlarning markaziy shaharlardan yoki aglomeratsiyalardan yaqin atrofdagi turistik maskanlarga qulay tarzda yetib borishi ta‘minlanishi kerak.

Turistlar uchun qisqa muddatli dam olish imkoniyatlarini yaratish, bu maskanlarda zamonaviy va ekologik toza xizmatlar taklif etish, turistlarning kunlik safarlari davomida ularga qulay xizmatlarni taklif qiluvchi restoranlar, kafelar va savdo maskanlarini rivojlantirish, turistik maskanlarda muntazam ravishda ekskursiyalar va madaniy tadbirlarni tashkil etish, bu sayyohlarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mayatnik aloqalarni rivojlantirishda ekologik jihatdan toza transport vositalarini va turizmni rivojlantirish usullarini kiritish dolzarb ahamiyatga ega. (2-rasm)



2-rasm. Turizm aglomeratsiyasidagi mayatniksimon aloqalarni aks ettiruvchi konseptual illyustratsiya²⁰.


2-rasmda turizm aglomeratsiyasidagi mayatniksimon aloqalarni aks ettiruvchi konseptual illyustratsiya keltirilgan. Mintaqa turistik aglomeratsiyasining mayatnik aloqalarini rivojlantirish turistik infratuzilmani kengaytirish, samarali transport tizimlarini joriy yetish, xizmatlar sifatini oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqotimizda quyidagi takliflarni kiritdik. Elektr transport vositalari, gibrid avtobuslar yoki boshqa ekologik toza transport vositalarini kiritish orqali ekologik ta‘sirni kamaytirish kerak. Milliy parklar, qo‘riqxonalar va tabiiy maskanlarda qat‘iy ekologik standartlarni joriy qilish va ularni saqlash choralari ko‘rilishi kerak.

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu esa, hududlardagi turistik faoliyatlarni tartibga solish, zararli ta'sirlarni kamaytirish va resurslardan to'g'ri foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ekologik turizmni rivojlantirish va tabiiy maskanlar hamda qo'riqxonalar haqidagi axborotni keng tarqatish orqali turistlarni ekologik jihatdan mas'uliyatli sayohatlar qilishga undaydi. Qashqadaryo viloyatida turistik aglomeratsiya va mayatnik aglomeratsiya modellarini tadqiq etish orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Viloyatning tarixiy va tabiiy turizm salohiyatidan unumli foydalanish, markaz va periferiya hududlar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish orqali turistik jozibadorlikni oshirish mumkin. Shahrisabz va Kitob turistik markazlari, Qarshi esa logistik va xizmat ko'rsatish markazi sifatida rivojlansa, viloyatning turizm sohasi sezilarli darajada o'sadi. Buning natijasida mahalliy aholi bandligi ortib, viloyat iqtisodiyotiga qo'shimcha daromad oqimi kelib tushadi. Shu bois, Qashqadaryo viloyatida turistik aglomeratsiyani shakllantirish va mayatnik aglomeratsiyani rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mintaqada turistik aglomeratsiyalarni tashkil qilish tendensiyalari**"ga bag'ishlangan. Ushbu bob Mintaqada turistik aglomeratsiyalarini tashkil qilishning diversifikatsiya tahlili, Qashqadaryo viloyatida turistik aglomeratsiyasini optimal joylashtirish bosqichlari va Qashqadaryo viloyati ekoturistik aglomeratsiya infratuzilmasining tahlillari yoritilgan. Mintaqada turizm bilan bog'liq xizmat ko'rsatishning diversifikatsiyasi deganda, turistik xizmatlarning ko'lamini kengaytirish va yangi xizmat turlarini joriy etish orqali turizm sohasini rivojlantirish tushuniladi. Mintaqada turizm bilan bog'liq xizmatlar ko'lamini kengaytirish orqali turli xil sayyohlar guruhlariga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaratiladi. Misol uchun, sport turizmi, sog'lomlashtirish turizmi, biznes turizmi, ekoturizm va ziyorat turizmi kabi turlarni rivojlantirish turizm xizmatlarining diversifikatsiyasi hisoblanadi. (3-rasm)



3-rasm. Turizm diversifikatsiyasi²¹.

3-rasmda turizm bilan bog'liq diversifikatsiyaning tasviri aks yetgan bo'lib, turizm sohasidagi xizmatlar diversifikatsiyasi, jumladan, ekologik turizm,


²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

madaniy turizm va sarguzashtli turizm tasvirlangan. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar, masalan, mobil ilovalar va virtual qoʻllanmalar ham turistik xizmatlarda qanday rol oʻynashini koʻrsatmoqda.

Oqimni tartibga solish, Sayyohlar oqimining bir necha manzillarga yoʻnaltirilishi diqqatga sazovor joylarda ortiqcha yuklamani oldini oladi va ularning barqaror ishlashiga yordam beradi. Optimal joylashtirish orqali mavsumiy turizm bilan bogʻliq muammolarni kamaytirish va yil davomida sayyohlarni jalb qilish imkoniyati yaratiladi. Qashqadaryo viloyatida ekoturistik aglomeratsiya infratuzilmasini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar viloyatning geografik, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bogʻliq boʻlib, ularning hal etilishi hududning ekoturizm sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Qashqadaryo viloyatining ayrim ekoturistik hududlariga, xususan, togʻli va qishloq joylariga yetib borish qiyin. Yoʻl tarmoqlari sifatining pastligi va zamonaviy transport infratuzilmasining yoʻqligi sayyohlar oqimini cheklab qoʻyadi.

Viloyatda ekoturizm infratuzilmasi (mehmonxonalar, kemping joylari, dam olish maskanlari) yetarli darajada rivojlanmagan. Sayyohlar uchun qulay sharoitlar va xizmat koʻrsatish punktlari yetishmaydi. (4-rasm)



4-rasm. Mintaqadagi ekoturistik aglomeratsiya infratuzilmasini rivojlantirishdagi muammolar²².

Mintaqadagi ekoturistik aglomeratsiya infratuzilmasini rivojlantirishda asosan, 2023-yilda xorijiy sayyohlar tashrifi 77 887 ming nafar boʻlsa, 2024-yilda xorijiy sayyohlar tashrifi 303 192 ming nafarga yetgan va xorijiy sayyohlar oqimi ortgan.

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2023-yilda mahalliy sayyohlar tashrifi 728 400 ming nafar bo'lsa 2024-yilda mahalliy sayyohlar tashrifi 874 200 ming nafar bo'lgan. Ya'ni biz tadqiqot jarayonida ushbu ko'rsatkichlarni Turist oqimini oshirish indeksi asosida asosladik:

$$TOOI = \frac{Y_{ts} - A_{ts}}{A_{ts}} \cdot 100 \quad (1)$$

$TOOI$ – Turist oqimini oshirish indeksi

Y_{ts} – Yangi turistlar soni

A_{ts} – Avvalgi turistlar soni

$$TOOI = \frac{874\,392 - 806\,287}{806\,287} \cdot 100 = 108\%$$

Turistlar oqimini oshirish va simulyatsiya qilish uchun turli xil ma'lumotlar kerak bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar agentlarning xulq-atvori, ularning o'zaro ta'siri va atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini to'g'ri modellashtirish imkonini beradi. Quyida ABM-da ishlatiladigan asosiy ma'lumotlar turlari keltirilgan. ABM da turli xil agentlar modellashtiriladi.

Aglomeratsiya daromadi

$$AD = (T_s \cdot O'_{sm}) + Q_{xt} \quad (2)$$

AD – Aglomeratsiya daromadi, *mlrd.so'm*

T_s – Turistlar soni, *ming nafar*

O'_{sm} – O'rtacha sarflangan mablag', *ming so'm*

Q_{xt} – Qo'shimcha xizmatlardan tushum, *mlrd.so'm*

$$AD = (874\,392 \times 346\,000) \cdot 85 \text{ (mlrd.so'm)} = 302 \text{ (mlrd) } 540 \text{ (mln.so'm)} + 85 \text{ (mlrd.so'm)} = 387 \text{ (mlrd) } 540 \text{ (mln.so'm)}.$$

Turizm aglomeratsiyalari o'rtasidagi masofa aholi zichligini hisobga olgan holda turist oqimlarini prognoz qilish uchun qo'llaniladi. "Gravitatsion model" ushbu model tortish kuchi qonuniga o'xshab ishlaydi.

$$T_{ij} = G \frac{P_i \cdot P_j}{d_{ij}^2} \quad (3)$$

3-formulada T_{ij} – i va j turizm aglomeratsiyalari o'rtasidagi turist oqimi;

G – tortishish konstantasi (empirik ravishda aniqlanadi);

P_i, P_j – i va j ushbu hududlarning iqtisodiy yoki demografik massasi (aholi soni, YAIM hajmi);


d_{ij}^2 – i va j joylari o'rtasidagi masofa.

Bu modeldan Shahrizabz va Kitob kabi asosiy turistik markazlar o'rtasidagi masofa va turistlarning tortish kuchini hisoblashda qo'llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqada turistik aglomeratsiyasini optimal joylashtirish mexanizmini takomillashtirish**"ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqada aglomeratsiyasini optimal joylashtirishning smart-turizm texnologiyalari, turizm aglomeratsiyani optimal joylashtirishni zamonaviy modellar asosida

takomillashtirish yo‘llari va mintaqa turistik aglomeratsiyani rivojlanishining ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish istiqbolli ko‘rsatkichlari yoritilgan.

Unda zamonaviy texnologiyalar turizm va shahar infratuzilmasi bilan qanday muammosiz integratsiyalashuvini namoyish yetadi. Mintaqaning turistik salohiyati keng ommaga targ‘ib qilinadi. Milliy va xalqaro bozorlarga reklama kompaniyalari yo‘naltiriladi. Mintaqani noyob brend sifatida yaratish va uni bozorga olib chiqish va brendlash sayyohlarning e‘tiborini jalb qilish uchun o‘ziga xos jihatlar va mintaqaning madaniy merosini aks ettiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, bloglar va video kontentlar orqali raqamli marketing strategiyasi amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqa aglomeratsiyasini optimal joylashtirishda smart-turizm texnologiyalari katta ahamiyatga ega. Smart-turizm texnologiyalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida turistik infratuzilmani raqamlashtirishni va xizmatlarni avtomatlashtirishni ta‘minlaydi. (5-rasm)



5-rasm. Turistik shahar muhitida smart-turizm texnologiyalarini Smart-turizm aglomeratsiya platformasiga qo‘llash²³

Mintaqaning mavjud resurslari, tabiiy sharoiti, infratuzilmasi va turistik salohiyati o‘rganildi. Bozor tadqiqotlari va raqobatchilar tahlili amalga oshiriladi. Viloyatda turizm aglomeratsiyalarini optimal joylashtirish uchun algoritmik yondashuvda bir nechta matematik formulalar va optimallashtirish modellari qo‘llanilishi mumkin. 4 va 5-formulalar orqali turizm resurslarining optimal joylashuvini va infratuzilmaning samarali tarqalishini hisoblash mumkin. Bu bilan turistlarning qaysi yo‘nalishda ko‘proq harakatlanishi aniqlanadi va Lagrange multiplikatorlari (Matematik optimizatsiyada chegaralangan ekstremumlarni topish uchun ishlatiladigan usul) cheklovli optimallashtirish muammolarini hal qilishda

²³ Muallif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan

ishlatiladi. Agar turizm aglomeratsiyalarini joylashtirishda tabiiy resurslar, infratuzilma va iqtisodiy resurslar cheklangan bo'lsa, Lagrange multiplikatorlari orqali optimal joylashtirish aniqlanadi.

$$L(x_1, x_2, \partial) = f(x_1, x_2) + \partial(\Gamma(x_1, x_2) - c) \quad (4)$$

4-formulada L – Lagrange multiplikatori;

$f(x_1, x_2)$ – optimallashtirilishi kerak bo'lgan funksiyalar (masalan, iqtisodiy foyda, sayyohlar oqimi);

$\partial(x_1, x_2)$ – cheklov funksiyasi (masalan, infratuzilma, resurslar);

c – cheklov qiymati (masalan, mavjud moliyaviy yoki ekologik limit).

Bu algoritm orqali resurslar (tabiiy, infratuzilmaviy, moliyaviy) cheklangan holatlarda turistik markazlarni optimal joylashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Turistik joylarning joylashuvi turistlar o'rtasidagi umumiy masofani minimallashtiruvchi tarzda aniqlanadi. Bu model turistlar uchun joylar orasidagi masofani qisqartirish va xizmatlardan samarali foydalanish uchun optimal joylashuvni topishga yordam beradi. Masofa minimallashtirish modeli (P-median model) deb ham ataladi.

$$Z = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m h_i \cdot d_{ij} \cdot x_{ij} \quad (5)$$

5-formulada Z – umumiy xarajat yoki masofa (minimallashtirilishi kerak);

h_i – i nuqtadagi turistlarning oqimi;

d_{ij} – i va j nuqtalar orasidagi masofa;

x_{ij} – agar i joy j xizmat ko'rsatuvchi joyiga bog'langan bo'lsa, 1, aks holda 0.

Turistik xizmat ko'rsatish joylari (mehmonxonalar, restoranlar va dam olish zonalari) orasidagi masofani minimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu sayyohlar uchun yo'l xarajatlarini kamaytiradi va qulaylikni oshiradi. Buni masofa minimallashtirish modeli (P-median model) deb ham ataladi.

Bu operatsion tadqiqotlar va logistika sohasida qo'llaniladigan optimallashtirish modeli bo'lib, uning asosiy maqsadi xizmat ko'rsatish joylarini turizm markazlarini, shunday joylashtirishki, ular mijozlar yoki foydalanuvchilar bilan bog'langan masofalarni minimallashtirishdir. Bu model, ayniqsa, geografik hududda xizmat ko'rsatish turizm markazlarini joylashtirishni optimallashtirish uchun qo'llaniladi. P-median modelining asosiy maqsadi – turli punktlar orasidagi umumiy masofani minimallashtiruvchi tarzda xizmat ko'rsatish markazlarini tanlash va joylashtirish. U “median nuqtalar” orqali mijozlar yoki foydalanuvchilarni xizmat markazlariga yeng yaqin masofada joylashtirishni nazarda tutadi.


P-median modeli turizm aglomeratsiyalarini optimal joylashtirish uchun samarali vositadir. U turistlar va xizmat markazlari o'rtasidagi masofani minimallashtirish orqali sayyohlar oqimini va xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. (1-jadval)

Turizm aglomeratsiyani optimal joylashtirishni matematik formulalar asosida takomillashtirish yo‘llari²⁴

№	Nomi	Formula	Tavsifi	Natija
